


**O'zbekiston Respublikasi  
Oliy va o'rta maxsus ta'lim vazirligi**

**60811500 - Zootsiyeneriya (baliqchilik)  
bakalavriat ta'lim yo'nalishining malaka talablari**

**Toshkent**



### **ISHLAB CHIQILGAN VA KIRITILGAN:**

- Toshkent davlat agrar universiteti.
- O‘zbekbaliqsanoat uyushmasi.

### **TASDIQLANGAN VA AMALGA KIRITILGAN:**

O‘zbekiston Respublikasi Oliy va o‘rta maxsus ta’lim vazirligi huzuridagi Oliy, o‘rta maxsus va professional ta’lim yo‘nalishlari bo‘yicha o‘quv-uslubiy birlashmalar faoliyatini Muvofiqlashtiruvchi kengashning 2021 yil «24» 08 dagi 4 - sonli yig‘ilishida ma’qullangan.

O‘zbekiston Respublikasi Oliy va o‘rta maxsus ta’lim vazirligining 2021 yil «25» 08 dagi 365 -sonli buyrug‘i bilan tasdiqlangan.

### **JORIY ETILGAN:**

O‘zbekiston Respublikasi Oliy va o‘rta maxsus ta’lim vazirligi.

Mazkur malaka talablari “Oliy ta’lim davlat ta’lim standarti. Asosiy qoidalar” “Oliy ta’lim yo‘nalishlari va mutaxassisliklari klassifikatori”, O‘zbekiston Respublikasi Milliy malaka ramkasiga muvofiq ishlab chiqilgan va rasmiy me’yoriy-uslubiy hujjat hisoblanadi.

O‘zbekiston Respublikasi hududida Malaka talablarini rasmiy chop etish huquqi O‘zbekiston Respublikasi Oliy va o‘rta maxsus ta’lim vazirligiga tegishlidir.

## MUNDARIJA

T/r	bet
1. 60811500-Zooinjeneriya ( <i>baliqchilik</i> ) bakalavriat ta'lim yo'nalishining umumiy tavsifi .....	4
1.1. Qo'llanish sohasi .....	4
1.1.1. 60811500-Zooinjeneriya ( <i>baliqchilik</i> ) ta'lim yo'nalishi Malaka talabining qo'llanishi.....	4
1.1.2. Malaka talablarining asosiy foydalanuvchilari.....	4
1.2. 60811500-Zooinjeneriya ( <i>baliqchilik</i> ) ta'lim yo'nalishi bo'yicha bakalavrlar kasbiy faoliyatlarining tavsifi .....	4
1.2.1. 60811500-Zooinjeneriya ( <i>baliqchilik</i> ) ta'lim yo'nalishi bo'yicha bakalavrlar kasbiy faoliyatining sohalari.....	4
1.2.2. 60811500-Zooinjeneriya ( <i>baliqchilik</i> ) ta'lim yo'nalishi bo'yicha bakalavrlar kasbiy faoliyatlarining ob'ektlari.....	5
1.2.3. 60811500-Zooinjeneriya ( <i>baliqchilik</i> ) ta'lim yo'nalishi bo'yicha bakalavrlar kasbiy faoliyatlarining turlari.....	5
1.2.4. 60811500-Zooinjeneriya ( <i>baliqchilik</i> ) ta'lim yo'nalishi bo'yicha bakalavrlarning kasbiy vazifalari.....	5
2. 60811500-Zooinjeneriya ( <i>baliqchilik</i> ) ta'lim yo'nalishi bo'yicha bakalavrlarning kasbiy kompetensiyalariga qo'yiladigan talablar.....	7
2.1. Umumiy kompetensiyalar.....	7
2.2. Kasbiy kompetensiyalar.....	7
Bibliografik ma'lumotlar.....	8
Kelishuv varag'i.....	9

## **1. 60811500- Zootsiyeneriya (baliqchilik) bakalavriat ta'lim yo'nalishining umumiy tavsifi**

60811500 - Zootsiyeneriya (baliqchilik) ta'lim yo'nalishi bo'yicha bakalavrlar tayyorlash kunduzgi va sirtqi ta'lim shakllarida amalga oshiriladi. Barcha ta'lim shakllari bo'yicha o'qitish kredit-modul tizimi asosida tashkil qilinadi. Kunduzgi ta'limda bakalavriat dasturining me'yoriy muddati 4 yil.

### **1.1. Qo'llanish sohasi**

#### **1.1.1. 60811500 - Zootsiyeneriya (baliqchilik) ta'lim yo'nalishi Malaka talabining qo'llanilishi**

Malaka talabi 60811500 - Zootsiyeneriya (baliqchilik) ta'lim yo'nalishi bo'yicha bakalavrlar tayyorlovchi barcha oliy ta'lim tashkilotlari uchun talablar majmuini ifodalaydi.

#### **1.1.2. Malaka talablarining asosiy foydalanuvchilari:**

mazkur ta'lim yo'nalishi bo'yicha malaka talablari, o'quv reja va o'quv dasturlarini ishlab chiqish va yangilash, ular asosida o'quv jarayonini samarali amalga oshirish uchun mas'ul hamda o'z vakolat doirasida bitiruvchilarning tayyorgarlik darajasiga javob beradigan oliy ta'lim tashkilotining boshqaruv xodimlari (rektor, prorektorlar, o'quv bo'limi boshlig'i, dekanlar va kafedra mudirlari) va professor-o'qituvchilari;

- ta'lim yo'nalishining o'quv rejasi va fan dasturlarini o'zlashtiruvchi oliy ta'lim tashkilotining talabalari;

- bakalavriat bitiruvchilarining tayyorgarlik darajasini baholashni amalga oshiruvchi

Davlat attestatsiya komissiyalari;

- ta'limni boshqarish bo'yicha vakolatli davlat organlari;

- oliy ta'lim tashkilotlarini moliyalashtirishni ta'minlovchi organlar;

- oliy ta'lim tizimini akkreditatsiya va sifatini nazorat qiluvchi vakolatli davlat organlari;

- kadrlar buyurtmachilari va ish beruvchi tashkilot va korxonalar;

- oliy ta'lim tashkilotlariga o'qishga kirayotgan abituriyentlar, ularning ota-onalari va boshqa manfaatdor shakslar.

#### **1.2. 60811500 - Zootsiyeneriya (baliqchilik) ta'lim yo'nalishi bo'yicha bakalavrlar kasbiy faoliyatlarining tavsifi.**

#### **1.2.1. 60811500 - Zootsiyeneriya (baliqchilik) ta'lim yo'nalishi bo'yicha bakalavrlar kasbiy faoliyatining sohalari:**

60811500 - Zootsiyeneriya (baliqchilik) bakalavriat ta'lim yo'nalishi - "Qishloq xo'jaligi" ta'lim sohasiga oid yo'nalishi bo'lib, u davlat, aksionerlik va xususiy kompaniyalar (firmalar), ishlab chiqarish korxonalarini va birlashmalari, iqtisodiyotning turli soha va tarmoqlarini boshqarish, ularni ijtimoiy-iqtisodiy, rivojlantirish istiqbollari belgilash bo'yicha iqtisodiy, tashkiliy masalalar yechimlarini baliqchilikning rivojlanish qonuniyatlari va zamonaviy konsepsiyalari asosida ishlab chiqish va amalga oshirish bilan bog'liq kompleks masalalar. Shuningdek yer, suv, energetik va moddiy-texnika resurslaridan samarali foydalanish hamda baliqchilik maxsulotlarini ishlab chiqarish va yetishtirishda zamonaviy resurstejamkor innovatsion texnologiyalarni qullash, baliqchilik xo'jaligida ishlab chiqarish jarayonlarini optimallashtirish, suv havzalari hosildorligi va yetishtirilayotgan baliq mahsulotlari sifatini oshirish, kasbiy faoliyatida ishlab chiqarish vositalaridan oqilona foydalanish, baliqlarni urchitish, naslchilik ishini olib borish, baliqlar uchun to'la qiymatli ozuqa ratsionlarini tuzish,

oziqlantirish va mustaxkam ozuqa bazasini tashkil etish bilan bog‘liq kasbiy sohalar majmuasini qamrab oladi.

### **1.2.2. 60811500 - Zootsiyeneriya (baliqchilik) ta‘lim yo‘nalishi bo‘yicha bakalavrlar kasbiy faoliyatlarining ob‘ektlari:**

- davlat va nodavlat tashkilot, korxonalar va muassasalar, kompaniyalar (firmalar), ishlab chiqarish birlashmalari va boshqalar;
- iqtisodiyotning turli soha va tarmoqlarida tashkilot, korxonalar va muassasalar samaradorligi va natijadorligini oshirish jarayonlari;
- boshqaruvda vaziyatli va tizimli yondashuv tamoyillarini tadbiiq etish, davlat va mahalliy boshqaruv qarorlarini amalga oshirish jarayonlari;
- tashkilot va korxonalarda zamonaviy boshqaruv tizimini tashkil etish, tashkiliy tuzilmalarni optimallashtirish, boshqaruv samaradorligini oshirish, mehnatni rag‘batlantirish jarayonlari;
- yer, suv, o‘simliklar olami va moddiy – texnika resurslari;
- O‘zbekbaliqsanoat uyushmasi va uning xududiy bo‘limlari;
- baliqchilik bilan shug‘illanayotgan barcha toifadagi xo‘jaliklar va ularning baliqlari;
- baliqchilikda ishlatiladigan asbob-uskunalar, jixozlar, xamda mexanizmlar;
- baliqchilik mahsulotlarini qayta ishlash uskunalarini;
- nasl mahsulotlari – urug‘, tuxum, chavoq va baliqlar;
- baliqlarning zarakunandalari va kasalliklariga qarshi ishlatiladigan kimyoviy vositalar;
- baliqlarning tabiiy ozuqa manbalari va suniy ozuqa bazasini yaratish uskunalarini;
- ilmiy-tadqiqot jarayonlari;
- texnik asbob uskunalarini;
- qishloq xo‘jaligi texnikalarini;
- baliqchilik mahsulotlarini ishlab chiqarish korxonalar va tashkilotlarida ilmiy-tadqiqot jarayonlari va boshqaruv tizimlari.
- zamonaviy axborot texnologiyalari tizimini yaratish va ularning ekspluatatsiyasi bilan bog‘liq bo‘lgan ishlab chiqarish jarayonlari monitoringi va sifatini baholash usullari va mexanizmlarini ishlab chiqish.

60811500 - Zootsiyeneriya (baliqchilik) ta‘lim yo‘nalishi bo‘yicha bakalavriyat bitiruvchilari pedagogik qayta tayyorlashdan o‘tgandan keyin, professional ta‘lim muassasalarida ta‘limning vakolatli boshqaruv organlari tomonidan aniqlanadigan umumkasbiy va ixtisoslik fanlarini o‘qitish bo‘yicha pedagogik faoliyati bilan shug‘illanish huquqiga ega bo‘ladi. Bakalavriyatning kasb ta‘limi yo‘nalishlari bundan mustasno.

### **1.2.3. 60811500 - Zootsiyeneriya (baliqchilik) ta‘lim yo‘nalishi bo‘yicha bakalavrlar kasbiy faoliyatlarining turlari:**

- tashkiliy-boshqaruv;
- ishlab chiqarish va xizmat ko‘rsatish;
- axborot-tahliliy faoliyat;
- ilmiy-tadqiqot faoliyati;
- tadbirkorlik.

### **1.2.4. 60811500 - Zootsiyeneriya (baliqchilik) ta‘lim yo‘nalishi bo‘yicha bakalavrlarning kasbiy vazifalari**

60811500 – Zootsiyeneriya (baliqchilik) ta‘lim yo‘nalishi bo‘yicha Milliy malaka ramkasining 6-malaka darajasi hamda bakalavr kasbiy faoliyatlarining sohalari, ob‘ektlari va turlariga muvofiq bakalavriyat bitiruvchisi quyidagi kasbiy vazifalarni bajarishga qodir bo‘lishi lozim:

#### **Tashkiliy-boshqaruv hamda ishlab chiqarish va xizmat ko‘rsatish faoliyatida:**

- ishlab chiqarishni tashkil etish va boshqarish;
- tashkilot va korxonalar faoliyatini strategik rivojlantirishda zamonaviy baliqchilik ta‘lim sohasiga oid bilimlarni qo‘llash orqali boshqarish;

- tashkilot, korxonalar va ularning alohida bo'linmalari tashkiliy tuzilmasini optimallashtirish, xodimlarning professional tayyorgarlik darajasini oshirib borishni tashkil qilish va boshqarish, mehnat salohiyatidan samarali foydalanishni rejalashtirish, mehnatni rag'batlantirish tizimini yo'lga qo'yish;

- birlamchi ishlab chiqaruvchi bo'g'in ishini tashkil qilish va uni boshqarish;

- bajarayotgan faoliyati bo'yicha ish rejasini tuzish va uni bajarish, nazorat qilish va amalga oshirilgan ishlarning natijalarini baholash;

- kasbga oid muammolar yechimlarini amaliyotga tatbiq etish, ishlab chiqarish jarayonida sifatni boshqarish;

- korxonalar tashkiliy-boshqaruv faoliyatida qabul qilinadigan qarorlarni ijtimoiy-iqtisodiy samaradorlik mezonlari asosida ishlab chiqishda hamda qarorlarni muqobil variantini tanlab olishni asoslashda ishtirok etish;

- zamonaviy axborot texnologiyalardan boshqaruvda foydalanish, ishlab chiqarish jarayonlari monitoringi va sifatini baholash usullari va mexanizmlarini ishlab chiqish;

- atrof-muhitni muhofaza qilish va mehnat xavfsizligi talablariga mos kelishi borasida ishlab chiqarish jarayonlarini nazorat qilish;

- ishlab chiqarish jarayonlari va resurslaridan foydalanishni rejalashtirish, favqulodda sodir bo'lishi mumkin bo'lgan xavf-xatarlarni tahlil qilish;

- ishlab chiqarish va xizmat ko'rsatish korxonalariga investitsiyalarni jalb qilish mexanizmlarini qo'llash, investitsion loyihalarni ishlab chiqish va boshqarish.

#### **Axborot-tahliliy faoliyatida:**

- boshqaruv qarorlarini qabul qilish uchun tashkilotning tashqi va ichki muhiti omillari to'g'risidagi ma'lumotlarni to'plash, qayta ishlash va tahlil qilish;

- qaror qabul qilish, faoliyatni rejalashtirish va boshqarish uchun ma'lumot to'plash, tashkilotning ichki axborot tizimini yaratish va uning ishlashini boshqarish;

- tashkilotning ichki hujjat aylanishi tizimini ishlab chiqish va boshqarish, tashkilotlar faoliyatining turli ko'rsatkichlari bo'yicha ma'lumotlar bazasini yuritish;

- loyihalar samaradorligini baholash;

- axborot-tahlil faoliyati natijalari bo'yicha hisobot tayyorlash;

- boshqaruv qarorlarining samaradorligini baholash.

#### **Ilmiy-tadqiqot faoliyatida:**

- ilmiy-tadqiqot institutlari va ilmiy markazlarda tarmoqlar va sohalarni zamonaviy boshqarish usullari bo'yicha ilmiy tadqiqot ishlarini amalga oshirishda qatnashish;

- ilmiy-tadqiqot institutlari va ilmiy markazlarda ta'lim yo'nalishlaridagi fanlar va ularni o'qitish metodikasiga oid mavzularda tadqiqot olib borish;

- xo'jalik yurituvchi sub'ektlarni zamonaviy boshqarish tizimini ta'minlashga bag'ishlangan mamlakatdagi va xorijiy davlatlardagi fan-texnika yutuqlari, maxsus adabiyotlar va boshqa ilmiy-texnik axborotlarni o'rganish va tizimlashtirish;

- tarmoqlar va sohalarni zamonaviy boshqarish tizimini ta'minlash borasidagi muammoli mavzular bo'yicha sohaga oid axborotlarni yig'ish, qayta ishlash, tahlil qilish va tizimlashtirish ishlarini amalga oshirish;

- internet tarmog'ida eng yangi ilmiy yutuqlar haqidagi ma'lumotlarni maqsadga yo'nalgan holda qidirish va topish;

- ilmiy tadqiqot ishlanmalarini tayyorlash, soha adabiyotlari ekspertizasini amalga oshirishda qatnashish;

- tadqiqot natijalari va ishlanmalarni tatbiq etish.

#### **Tadbirkorlik faoliyatida:**

- baliqchilik sohasida yangi biznes-loyihalarni shakllantirish va amalga oshirish;

- baliqchilik sohasida biznesni tashkil etish, biznes-rejalarni ishlab chiqish va amalga oshirish.

## **2. 60811500 - Zootinjeneriya (baliqchilik) ta'lim yo'nalishi bo'yicha bakalavrlarning kasbiy kompetensiyalariga qo'yiladigan talablar**

### **2.1. Umumiy kompetensiyalar:**

- davlat siyosatining dolzarb masalalarini bilishi, ijtimoiy-iqtisodiy muammolar va jarayonlarni mustaqil tahlil qila olish;

- xorijiy tillardan birida kasbiy faoliyatiga oid hujjatlar va ishlar mohiyatini tushunishi, tabiiy ilmiy fanlar bo'yicha kasbiy faoliyati doirasida zaruriy bilimlarga ega bo'lishi hamda ulardan zamonaviy ilmiy asosda kasb faoliyatida foydalana bilish;

- axborot texnologiyalarini kasbiy faoliyatida qo'llay bilishi, axborotlarni yig'ish, saqlash, qayta ishlash va ulardan foydalanish usullarini egallagan bo'lishi, faoliyatida mustaqil asoslangan qarorlar qabul qila olish;

- yangi bilimlarni mustaqil egallay bilishi, o'z ustida ishlashi va mehnat faoliyatini ilmiy asosda tashkil qila olish;

- sog'lom turmush tarzi va unga amal qilish zaruriyati to'g'risida tasavvurga ega bo'lish.

### **2.2. Kasbiy kompetensiyalar:**

- me'yoriy-huquqiy hujjatlarni izlash, tahlil qilish va ulardan kasbiy faoliyatida foydalanish ko'nikmalariga ega bo'lish;

- tashkiliy tuzilmalarni optimallashtirish, kadrlarni boshqarish strategiyasini qo'llash, tadbirlarni rejalashtirish va amalga oshirish ko'nikmalariga ega bo'lish;

- muzokaralar, uchrashuvlar, ishbilarmonlik yozishmalarini olib borish va onlayn aloqalarni amalga oshirishni bilish;

- korporativ axborot tizimlarini, moliyaviy-iqtisodiy tahlil va moliyaviy hisobotni tayyorlashni, ma'lumotlar bazasini yuritishni bilish;

- strategik va operatsion boshqaruv vazifalarini, ishni tashkil qilish, boshqarishning zamonaviy texnologiyalarini, xodimlar jamoasiga yetakchilik qilishni bilish;

- strategik tahlil qilish, raqobatdoshlikni taminlashga qaratilgan tashkilot strategiyasini ishlab chiqish va amalga oshirish ko'nikmalariga ega bo'lish;

- akvakulturani rivojlantirish, tabiiy va sun'iy suv havzalaridan oqilona foydalanish, baliq yetishtirishning ilmiy asoslangan usullari innovatsion va intensiv texnologiyalarni qo'llash ko'nikmalariga ega bo'lish;

- baliqlarni inkubatsiyalash, chavoq yetishtirish, parvarishlash, oziqlantirish, tovar baliq yetishtirish, naslchilik ishlarini olib borish, urchitish, baliq mahsulotlarini ishlab chiqarish, saqlash va qayta ishlash quvvatlarini kengaytirish ko'nikmalariga ega bo'lish;

- suvning gidrokimyoviy tarkibi, ixtiologik va gidrobiologik tahlillarni laboratoriya usulida tahlil qilish, baliqlarni kasalliklardan himoya qilish, baliq kasalliklarini aniqlash, ularni davolash ko'nikmalariga ega bo'lish;

- loyihalar, biznes-rejalar va shartnomalarni shakllantirish hamda boshqarish, ijrochilar faoliyatini muvofiqlashtirish ko'nikmalariga ega bo'lish;

- ishlab chiqarish muhiti, bozor va unga xos xatarlarni, raqobot muhitini tahlil qilish va baholash ko'nikmalariga ega bo'lish;

- boshqaruv qarorlarini qabul qilishda, ularni aniq boshqaruv vazifalariga moslashtirish orqali iqtisodiy, moliyaviy va tashkiliy-boshqaruv modellarini shakllantirishda miqdoriy va sifatli tahlil qilish ko'nikmalariga ega bo'lish;

- biznes jarayonlarini modellashtirish, biznes yuritishning iqtisodiy va ijtimoiy sharoitlarini baholash, yangi bozor imkoniyatlarini aniqlash va yangi biznes modellarini shakllantirishni bilish;

- yangi tashkilotlarni (faoliyat yo'nalishlari, mahsulotlari) yaratish va rivojlantirish uchun biznes rejalashtirish ko'nikmalariga ega bo'lish;

- tegishli bakalavriat yo'nalishi doirasida tanlangan mutaxassislik bo'yicha magistraturada oliy ta'limni davom ettirishga;

- oziq-ovqat mahsulotlari xavfsizligini ta'minlashga qaratilgan tadbirlarini amalga oshirish uquviga ega bo'lish;

- yechilayotgan ilmiy muammolar va topshiriqlarning konseptual hamda nazariy modellarini ishlab chiqish va ilmiy-tadqiqot natijalari bo'yicha tavsiyalar va ishlanmalarni amaliyotga tadbir etish ko'nikmalariga ega bo'lish.

### **Bibliografik ma'lumotlar**

UDK 002: 651. 1/7

Guruh T 55

OKS 01.040.01

---

#### **Tayanch so'zlar:**

kasbiy faoliyat turi, kompetensiya, ta'lim yo'nalishi, kasbiy faoliyat ob'ekti, kasbiy faoliyat sohasi, kredit, modul, bakalavriatning o'quv reja va o'quv dasturi, profil, o'qib-o'rganish natijalari, o'quv sikli, konsalting, baliqchilik, ixtiologiya, gidrobiologiya, akvakultura, limnologiya, suv havzalari, suv bioressurslari, nasl, urug', tuxum, chavoq, baliq, baliq mahsulotlari, malaka talablari, qo'llanish sohasi, o'quv davri, bakalavriatning o'quv jarayoni, sifatni baholash va nazorati, ishlab chiqarish va malaka amaliyoti, bitiruv malakaviy ishi, davlat attestatsiyasi, o'quv fanlari bloki, oliy ta'lim muassasasi, ta'lim jarayoni, boshqaruv jarayoni, ishlab chiqarish va xizmat ko'rsatish, loyihalash, tashkiliy boshqaruv, axborot-tahliliy faoliyat, ilmiy-tadqiqot faoliyati, tadbirkorlik.



## КЕЛИШУВ ВАРАҒИ

### ИШЛАБ ЧИҚИЛДИ:



Тошкент давлат аграр университети

Ректор Б.А. Сулайманов

2021 йил « 19 » 08

### КЕЛИШИЛДИ:

Ўзбекистон Республикаси  
Олий ва ўрта махсус таълим вазирлиги  
хузуридаги Олий таълимни  
ривожлантириш тадқиқотлари ва илғор  
технологияларни татбиқ этиш маркази

Директор в.б. М. Эсонов

2021 йил « 19 » 08  
М.Ў.

Ўзбекистон Республикаси Қишлоқ  
хўжалиги Вазирининг  
иктисод, инновацион ривожланиш ва  
инвестициялар  
масалалари бўйича маслаҳатчиси

А. Шукуров

2021 йил « 20 » 08  
М.Ў.

“Ўзбекбалиқсаноат” уюшмаси  
Раиснинг биринчи ўринбосари  
Р. Курбонов

2021 йил « 19 » 08

М.Ў.

Балиқчилик илмий-тадқиқот  
институтининг

Директор А. Курбонов

2021 йил « 19 » 08

М.Ў.

“Балиқчилик илмий маркази”

Директор Д. Шохимардонов

2021 йил « 19 » 08

М.Ў.

Астрахан давлат техника университети  
Тошкент вилояти филиали директори  
Директор А. Хамракулов

2021 йил « 19 » 08

М.Ў.